

Djurayev, R.Tursunov, B.Muxitdinov

VAZIRLIK TIZIMIDAGI CHODIR (PALATKA)LARDAN FOYDALANISH

Toshkent - 2022

UDK 685.531.2

O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Mualliflar: S.Djurayev, R.Tursunov, B.Muxitdinov

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirining 2023-yil 31-yanvardagi 21-son buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi FVV YoXvaFV ITI Ilmiy-texnik Kengashining qaroriga asosan chop etilishiga tavsiya etilgan.

Ushbu hujjat rasmiy nashr sifatida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot institutining ruxsatisiz to'liq yoki qisman talqin qilinishi, tirajlanishi va tarqatilishi mumkin emas.

I-bob. Aholini vaqtincha joylashtirish uchun o'rnatilgan chodirlarning (palatka) yong'in xavfsizligi va sanitariya muhofazasi talablari

1-§. Chodirlar o'rnatiladigan joy uchun umumiyl talablar

Chodirlarni o'rnatish joylari yuqori kuchlanishli elektr tarmog'i uzatmasidan **100 m**, qatnov yo'llardan **40-50 m** masofa uzoqlikda, tekis yer uchastkasiga ega bo'lishi kerak;

GOST R 22.3.18ga muvofiq chodirlar orasidagi masofalar quyidagicha qabul qilinadi:

uzun tomonlari bo'y lab kamida - **2,5 m**;

burchak uchlari orasi (chodirlar qatorlari) kamida - **10 m**;

chodir guruahlari orasidagi masofa kamida - **15 m**.

chodirlarni joylashtirish uchun mo'ljallangan hudud chiqindilar, quruq o'tlar, shox-shabbalardan tozalangan, oqava suvlari chiqadigan joylardan uzoqlashtirilgan bo'lishi kerak;

tungi vaqtida hududning tashqi yoritilishi **0,3 lyuks** darajasidan kam bo'Imasligi kerak;

maishiy hududida yuvinish joylari, hojatxonalar va chiqindilar uchun chuqurlar bo'lishi lozim.

Eslatma: Yuvinish joylari soyabon ostida er yuzasi bostirilgan joylarda 8 kishi uchun 1 dona yuvinish jihozasi hisobida o'rnatiladi. Qo'l yuvish uchun jihozlar ostida suv oqizish ariqchasi qazilgan bo'lishi shuningdek, yuvinish jihozlari mikrobiologik ko'rsatkichlari bo'yicha gigiyenik talablarga javob beradigan suv bilan to'ldirilishi kerak. Ushbu joy yaqinida suv bilan to'ldirilgan sig'im o'rnatilgan bo'lishi hamda sig'imni isitish uchun sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur.



2-§. Yong'in xavfsizligi talablari

Yong'in sodir bo'lganda odamlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida yong'in xavfsizligi talablariga tegishli yo'riqnomalar, yong'in va favqulodda holatlarda evakuatsiya rejalari, shuningdek yong'in sodir bo'lganda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning harakatlari va odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktyabrlagi **649-son** qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lische kerak;

odamlar joylashgan chodirlarda omborlar va boshqa xo'jalik mollarini joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi;

chodir avtomatik yong'in signalizatsiyasi bilan jihozlangan va markazlashtirilgan nazorat boshqaruva asbobiga ulangan bo'lische kerak.

Eslatma: Ushbu joylarda avtonom turdag'i (tutun va isiqlikka ishlaydigan) yong'in xabarlagichlaridan foydalanish mumkin.

Chodirlar o'rnatilgan shaharchalar yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari hamda sig'imi **200 litr**dan kam bo'limgan suv bochkalari bilan ta'minlangan quyidagi yong'inga qarshi qalqonlar (keyingi o'rnlarda YoQQ) bilan ta'minlangan bo'lische kerak:

a) **20 ta** chodirlar uchun "A" sinfidagi YoQQ-A - **1 dona**;

b) elektr qutilar va elektr uskunalari joylashgan joylar uchun "E" sinfidagi YoQQ-E - **1 dona**;

chodirlar **GOST R 22.3.18**ga muvofiq yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari bilan ta'minlangan bo'lische kerak;

yong'in o'chirishning birlamchi vositalari ularning pasport ma'lumotlariga muvofiq saqlanishi kerak.

Eslatma: tegishli sertifikatlarga ega bo'limgan yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish mumkin emas.

Chodirlarda foydalaniladigan elektr simlarining himoya qoplamasini ikki qavatli yoki gofrali shlang yordamida montaj ishlari amalga oshirililgan bo'lische lozim. Yoritish uchun yopiq turdag'i elektr chiroqlardan foydalanish kerak;

chodirlardagi elektr jihozlari **GOST 12.1.007** (zararli moddalar) va **GOST 12.1.004** (yong'in xavfsizligi) muvofiq xavfsizlik talablariga javob berishi kerak;

chodirlarning matolari, pol qoplamlari hamda mebel jixozlarining yuzasi kuchsiz alanga tarqatuvchi yoki alanga tarqatmaydigan materiallardan tayyorlanishi kerak;

yog'och qismlari va bo'laklari olovdan himoya qiluvchi tarkib yoki boshqa usullar bilan ishlov berilishi kerak;

chodirlarni isitish maqsadida ochiq olovdan foydalanish taqiqlanadi, isitish uchun **GOST 16617** talablariga javob beradigan elektr isitgichlardan foydalanishni ta'minlash kerak;

ovqat tayyorlash uchun ochiq olovdan foydalanishga ruxsat beriladi, agar oshxona (*ovqat tayyorlash joylari va o'tin saqlanadigan omborlar*) chodirlardan kamida **25 m** masofada joylashgan bo'lsa;

chodirlar va omborlar orasidagi yong'inga qarshi oraliqlar shuningdek, chodirlarga tutash joylar yonuvchi va boshqa turli xil chiqindilardan o'z vaqtida tozalab turilishi kerak;

yonuvchan va boshqa turdagи chiqindilar maxsus ajratilgan konteynerlar yoki qutilarda saqlanishi hamda muntazam ravishda to'plangan chiqindilar, chodirlar o'rnatilgan hududdan chiqarib tashlanishi kerak;

chodirlar orasidagi yong'inga qarshi oraliqlarida turli buyumlarni, asbob-uskunalarini, qadoqlarni va transport vositalarini saqlash hamda qo'shimcha chodirlarni o'rnatish taqiqlanadi;

yo'llar, chodirlarga kirish yo'laklar, ochiq omborlarga va yong'inni o'chirish uchun ishlatiladigan suv manbaalariga hamda yong'inga qarshi vositalarga olib boradigan yo'llar doimo bo'sh va soz holatda bo'lishi kerak;

yong'inga qarshi vositalarining joylashgan o'rni (joylashuvi) yong'in xavfsizligi belgilari, shu jumladan "**To'sib qo'yilmasin**" belgisi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak;

signal ranglari va yong'in xavfsizligi belgilari **GOST 12.4.026-2015** talablarga mos kelishi kerak;

chodirlarning sig'imi o'rnatilgan normalarga mos bo'lishi lozim. Mebel va boshqa jihozlarni joylashtirilishi odamlarni evakuatsiya qilinishga va yong'in o'chirish vositalariga yaqinlashishga xalaqit bermasligi kerak.

Qish mavsumida chodirlarni isitish uchun chodirning konstruksiyasida ko'zda tutilgan maxsus yenglar orqali ichkariga issiq havo yetkazib beradigan chodirning tashqarisida o'rnatilgan isitish jihozidan yoki qattiq yonilg'ida ishlaydigan pechlardan foydalanishga ruxsat beriladi.



Qattiq yonilg'ida ishlaydigan isitish pechlari chodirlar ichiga o'rnatilganda quyidagi yong'inga qarshi tadbirlar bajariladi:

chodirlar yog'ochli asoslarga o'rnatilganda isitish pechi ostiga metall qatlamdan yasalgan taglik (poddon) o'rnatiladi (metall qalinligi - **kamida 1 mm**, kengligi - kamida **100 sm**, uzunligi - kamida **120 sm**) perimetri bo'ylab yon tomonlari egilgan (bortlarning balandligi - kamida **30 mm**.) bo'lishi kerak, poydevor ostida **2-4 qatorda** tekis yotqizilgan g'ishtlardan foydalanishga ruxsat beriladi (g'isht uzunligi - kamida **120 sm**, kengligi - **100 sm** bo'lishi lozim);

isitish pechlari chodirning matosidan va boshqa yonuvchan buyumlardan kamida **1 m** uzoqligida o'rnatiladi;

dudbo'ron quvurlarining qismlari tutun yo'nalishi bo'yicha bir-biriga mahkam bog'langan bo'lishi kerak (quvurning kamida yarmi diametri va bo'g'inlarda qum va loy ohak bilan surtilgan yoki asbest yordamida o'tkazilgan bo'lishi kerak)

dudbo'ron quvurining chiqishi chodirning konstruksiyasiga muvofiq qat'iy ravishda unga mo'ljallangan teshikdan amalga oshiriladi. Chodirning konstruksiyasiga ko'ra, chodirning tepa qismida (kesuvchi chontagiga) dudbo'ron quvurining kamida uch diametri o'lchamiga ega tomyopma list o'rnatilishi kerak, ya'ni diametri **Ø100 mm** bo'lganda (**300x300 mm**), diametri **Ø150 mm** bo'lganda (**450x450 mm**), diametri **Ø200 mm** bo'lganda (**600x600 mm**).



Chodirlarda quyidagilar taqiqlanadi:

Yengil alanganuvchi va yonuvchan suyuqliklarni (keyingi o'rinnarda YeAS va YoS), uskunalar va boshqa narsalarni saqlash;

o'tish yo'llarni to'sib qo'yish;

YeAS va YoSlardan foydalangan holda tozalash ishlarini olib borish;

maxsus ajratilgan joylardan tashqarida tamaki chekish va ochiq olovdan foydalanish.

Izoh - maxsus ajratilgan chekish joylariga kuldonlar va o't o'chirgichlar o'rnatalishi kerak.

isitish pechlarini qarovsiz qoldirish;

isitish pechlarini yoqish uchun yonuvchan suyuqliklardan foydalanish;

pechlarni xaddan tashqari qizib ketishiga yo'l qo'yish;

pechlarda, dudbo'ronlarda va ularga yaqin bo'lgan joylarda kiyimlarni va boshqa buyumlarni quritish;

isitish pechi ishlash vaqtida olov qutisi eshigini ochiq qoldirish;

chodir ichida yonib bo'lgan kulni qoldirish.

3-§. Sanitariya muhofazasi talablari

Chodirlarning konstruksiyalari **GOST 17.1.3.05, GOST 17.1.3.13, GOST 17.2.1.04, GOST 17.4.3.03** talablariga muvofiq atrof-muhitni muhofaza

qilish, sanitariya-gigiena va sanitariya-epidemiologiya talablariga javob berishi kerak;

hojatxonalar chodirlardan va ovqat tayyorlash joylaridan kamida **35 m** masofada joylashgan bo‘lishi kerak;

Izoh - hojatxonalar 30 kishi uchun 1 ochko hisobidan jihozlanadi. Usti ochiq tomsiz hojatxonalar tashkil qilish taqiqlanadi.

xo‘jalik zona hududida axlat va oziq-ovqat chiqindilarini yig‘ish uchun qattiq qoplamali joylarga o‘rnatilgan qopqoqli alohida idishlar o‘rnatilgan bo‘lishi kerak;

quruq chiqindilar uchun turar-joy hududidan kamida **25 m** masofada joylashgan maxsus chuqurdan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi;

chodirga kirishdan oldin xodimlar uchun dezinfeksiyali suyuqligi bo‘lgan idish o‘rnatilishi kerak (dezinfeksiyalovchi sovunni ishlatish mumkin);

ovqatlanish stollari gigiyenik talablariga mos bo‘lishi kerak.

4-§. Chodirlarni hisobini yuritish, saqlash va hisobdan chiqarish tartibi

Chodirlarni hisobini yuritish Favqulodda vaziyatlar vazirining “Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida kiyim-kechak, oziq-ovqat, texnika va yokilgi-moylash ta’minoti soxasidagi tovar-moddiy boyliklar xisobini yuritish tartibini tasdiqlash to’g’risida” 2021-yil 21-dekabrdagi 383-son buyrug‘iga asosan hamda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan shakllarga asosan amalga oshiriladi.

Har bir chodirda tegishli pasport (formulyar)lar tuzib, chodirlarni ishlatish uchun berilishi tegishli hududiy boshqarma va tarkibiy tuzilma rahbarining buyruqlariga asoan beriladi.

Chodirlarni ishlatishga berilgan vaqt (yil, sana va buyruq raqamlari) ishlatishga berilgan chodirning pasport (forsulyar)iga kunlar hisobida hamda boshqa ma’lumotlar kiritiladi va tegishli muhr bilan tasdiqlanadi. Chodirlarni saqlash hududiy boshqarma va tarkibiy tuzilmalar omborlarida amalga oshiriladi.

Ishlatishdan qaytarilgan chodirlar ochiq maydonda yoyib qurutilib (ta’mirlab), jamlamalami butligini tekshirgandan so‘ng saqlanishga qabul qilinadi. Ta’mirlanmagan va qurutilmagan chodirlarni o‘rab saqlashga qabul qilish qat’iyan taqiqlanadi.

Favqulodda vaziyatlar vazirining tegishli buyruqlari bilan tasdiqlangan me'yorlarga asosan chodirlar xizmat muddatini o'tkandan so'ng (ishatishga yaroqli bo'limgan taqdirda) hisobdan chiqarish 2021-yil 21-dekabrdagi 383-soni buyrug'i bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Taqdim qilinayotgan chodirlarni hisobdan chiqarish hujjatlar to'plamiga chodirlarni rasmiylashtirilgan pasport (formulyar)lari taqdim qilinadi.

Pasport (formulyar)lari bo'limgan chodirlar hisobdan chiqarilishi qat'iany taqiqlanadi.

MUNDARIJA

I-bob. Aholini vaqtincha joylashtirish uchun o'rnatilgan chodirlarning (palatka) yong'in xavfsizligi va sanitariya muhofazasi talablari	3
1-§. Chodirlar o'rnatiladigan joy uchun umumiy talablar.....	3
2-§. Yong'in xavfsizligi talablari.....	4
3-§. Sanitariya muhofazasi talablari.....	7
4-§. Chodirlarni hisobini yuritish, saqlash va hisobdan chiqarish tartibi.....	8

Djurayev Sobir Mirzayevich
Tursunov Rovshan Xasildjanovich
Sadikov Rustam Mansurovich
Muxitdinov Bahrom Baxodir o‘g‘li

**“AVTOMATIK YoNG‘IN O‘ChIRISh QURILMALARI. O‘RNATISHGA
TALABLAR, IShLARNI BAJARISh VA QABUL QILISh QOIDALAR”**

(Rahbariy hujjat)

Texnik muharrir: S.D.Najimov

Bosishga 10.08.2023 yilda ruxsat etildi.
Qog‘oz bichimi 210x297. O‘lchami A5.
Garnitura Arial. Ofset bosma.
Birinchi nashr
Adadi 40 dona.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Fuqaro muhofazasi instituti
Tahririyot-noshirlik bo‘limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Anaybuloq ko‘chasi 3-uy.
Tel: (71) 266-50-36, 71 230-40-23.